

**SUD ISHLARINI ELEKTRON TARZDA YURITISH: TUSHUNCHASI,
MOHIYATI, RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA AHAMIYATI VA
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

To'raqulova Madina Ixtiyor qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, Advokatlik faoliyati yo'nalishi magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu tezisdan O'zbekistonda sud ishlarini elektron tarzda yuritishning tushunchasi, huquqiy mohiyati, tarixiy rivojlanish bosqichlari, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy hamda qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijasida elektron sud yuritish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** elektron sud yuritish, elektron ma'lumotlar, raqamli dalillar, videokonferensaloqa, sun'iy intellekt, masofaviy sud muhokamasi, "SMART SUD", axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron hujjat muomalasi.*

Kirish

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi butun dunyo sud-huquq tizimlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Elektron sud yuritish bugungi kunda nafaqat texnologik yangilik, balki huquqiy demokratiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida tan olinmoqda¹. O'zbekistonda ushbu jarayon "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "SMART SUD" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar soni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son Farmoni "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishga doir davlat dasturi to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/7369703>.

2020 yildagi 104 327 tadan 2024-yilda 436 086 taga yetganligi 4 barobardan ziyod o'sish – axborot texnologiyalarisiz kurasha bo'lmaydigan ish yukini yaqqol ko'rsatib turibdi.²

Mazkur mavzu O'zbekistonda ilk bor kompleks tarzda ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqilmoqda. D.Yu. Xabibullaev o'zining doktorlik dissertatsiyasida fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirish istiqbollarini o'rgangan bo'lsa-da, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning protsessual xususiyatlari ilgari kompleks o'rganilmagan edi.

Sud ishlarini elektron tarzda yuritish bu sudlar faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oydalanish asosida sud jarayonlarini raqamlashtirish, masofaviy ishtiroki imkoniyatlarini kengaytirish, elektron dalillarni qabul qilish va qayta ishlash, hamda sud hujjatlari muomalasini to'liq yoki qisman elektron shaklga o'tkazishni nazarda tutuvchi huquqiy-tashkiliy mexanizmlar majmuasidir. Professor Z.N. Esanova ta'kidlashicha, axborot texnologiyalarini joriy etish natijasida sud tizimida “elektron murojaaaat”, “elektron sudlov”, “elektron axborot almashinuvi” kabi yangi ilmiy tushunchalar shakllanmoqda.³ 2024-yil 21-noyabrdagi O'RBQ-1003-son Qonunga asosan IPKga kiritilgan yangi 76¹-modda elektron ma'lumotlarni elektron qurilmalar, axborot tizimlari va texnologiyalar yordamida

² <https://stat.sud.uz>.

³ Esanova, Z.N. (2023). Elektron sudlov: nazariy asoslar va amaliyot. Odil sudlov ilmiy-amaliy jurnali, 6, 3–8.

yaratilgan, qayta ishlangan hamda saqlangan ma'lumotlarni mustaqil dalil sifatida birinchi marta rasmiylashtirdi.⁴

Yuropa Kengashining CEPEJ standartlariga ko'ra, elektron sud tizimi Inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyaning 6-moddasidagi adolatli sud muhokamasi huquqiga to'liq mos bo'lishi shart.⁵ Bu talabga binoan, texnologiyalarning joriy etilishi sud adolatligini kamsitmay, aksincha kuchaytirishi lozim.

O'zbekistonda elektron sud yuritish to'rt bosqichda rivojlangan. Birinchi bosqich (2000–2010) – dastlabki infratuzilmani shakllantirish. Bu davrda sudlarda kompyuter texnikasi joriy etildi va sud ma'lumotlari bazalari yaratila boshladi. Ikkinchi bosqich (2010–2018) – me'yoriy-huquqiy asoslarni mustahkamlash. Iqtisodiy protsessual kodeks va Fuqarolik protsessual kodeksi qabul qilindi, ularda elektron hujjat muomalasining birinchi me'yorlari belgilandi. Uchinchi bosqich (2018–2022) – tizimni kengaytirish. my.sud.uz platformasi ishga tushirildi, masofaviy sud muhokamalarini o'tkazish imkoniyati qonun bilan mustahkamlandi va ishlarni avtomatlashtirilgan taqsimlash tizimi joriy etildi. 2020 yildagi Prezident Farmonlari sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni belgiladi. To'rtinchi bosqich (2022-hozirga qadar) “SMART SUD” konsepsiyasi bosqichi. 2025-yil 11-martdagi O'RQ-1047-son Qonun orqali IPKning 166-moddasiga masofaviy ishtirok etish tartibi kengaytirildi, Prezidentning

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 21 noyabrdagi O'RQ 1003-son Qonuni “Raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”. <https://lex.uz>.

⁵ Council of Europe, CEPEJ. (2018). European Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial Systems. Strasbourg: Council of Europe Publishing.

2025-yildagi Farmoni sud tizimiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va ishlarni bosqichma-bosqich to'liq elektron shaklda yuritish amaliyotini belgiladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Estoniyada aholining 92 foizi internetdan muntazam foydalanayotganligi hamda uchinchi shaxslarning ma'lumotlarga kirishining oldini olish choralari e-justice modelini xalqaro miqyosda ishonchli va xavfsiz tizim sifatida tan olinishiga xizmat qilgan. AQShda sudlarga o'z ichki reglamentlari orqali elektron hujjat taqdim etish qoidalarini belgilash huquqi berilgan. Isroilda esa "Keyingi avlod sud tizimi" (Next Generation Court System) barcha hujjatlarni elektron nusxada tayyorlashni majburiy qilib belgilagan.

Elektron sud yuritishning ahamiyati bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. **Iqtisodiy samaradorlik** - elektron formatga o'tish xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. **Adolatga erishish imkoniyatini kengaytirish** - masofaviy ishtirok etish imkoniyati jismoniy nogironligi, hududiy cheklovlari yoki moddiy qiyinchiliklari bor fuqarolar uchun sud himoyasiga bo'lgan huquqni real ta'minlaydi. **Shaffoflik va hisobdorlik**- jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va korrupsiya uchun imkonni toraytiradi.⁶

Sud ishlarini elektron yuritishning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat. Avvalo elektron dalillarning huquqiy maqomi haqida to'xtaladigan bo'lsak, 76¹-modda elektron ma'lumotlarni mustaqil dalil sifatida tan olib, ularni bir elektron jismdan boshqasiga ko'chirish orqali taqdim etish huquqini belgiladi. Sud ularni mutaxassis ishtirokida qabul qilishi va birlamchi elektron jismni ko'zdan kechirishi lozimligi mustahkamlandi. Ikkinchidan videokonferensaloqa protsessual mexanizmi takomillashdi. IPKning 166-moddasiga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar yashash joylari bo'yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan foydalanishlari mumkin. Videokonferensaloqa orqali ishtirok etayotgan guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlarga huquqlari tushuntirilganligi audio va videoyozuv orqali qayd etilishi shart.⁷ Uchinchidan axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish talabi. elektron tizim shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lish xavfini o'z ichiga olganligi sababli

⁶ Davletova, K. (2025). Retrospective Analysis and Legal Framework for the Introduction of ICT in the Judicial System of Uzbekistan. World Bulletin of Management and Law, 48, 24–28. <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/5378>.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025 yil 7 maydagi 27/2-88-25-son dalolatnomasi. IPK 76¹-moddasini joriy etish natijalari bo'yicha.

Xulosa

Amalga oshirilgan tahlillar va xalqaro tajriba o'rganilishi asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarni ilgari suramiz:

Birinchidan, Sud ishlarini elektron tarzda yuritish nafaqat hujjat muomalasini raqamlashtirish, balki sud adolati arxitekturasini tubdan yangilashni anglatuvchi kompleks huquqiy-texnologik jarayon. Uning mohiyati fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirish, jarayonning shaffofligi va tezkorligini oshirish, korrupsiya uchun imkoniyatlarni toraytirish va sud qarorlarining asosliligini ta'minlashdan iborat.

Ikkinchidan, O'zbekistonda elektron sud yuritish to'rt bosqichda rivojlangan. Hozirda mamlakatimiz sun'iy intellektni faol joriy etish bosqichida turib, 2024–2025 yillardagi me'yoriy yangiliklar bu yo'nalishdagi sezilarli ilgarilanishlarni ko'rsatmoqda. Biroq, IPKda masofaviy ishtirok, videokonferensaloqa va sun'iy intellektdan foydalanishga oid me'yorlarni yanada to'ldirish zarurati mavjud.

Uchinchidan, Elektron sud yuritishning o'ziga xos xususiyatlari – elektron dalillarning huquqiy maqomi, videokonferensaloqa protsessual mexanizmi, avtomatlashtirish, axborot xavfsizligi va raqamli savodxonlik talablari – O'zbekistonda ilk bor tizimli tahlil qilinayotganligi ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilarni keltirib o'tmoqchimiz: IPKga “elektron ma'lumotlar” va “elektron dalillar” tushunchalarining huquqiy ta'rifini mustahkamlash, videokonferensaloqa qo'llash bo'yicha maxsus yo'riqnoma ishlab

chiqish, tomonidan “Sud ishlarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha qo‘llanma” tayyorlash, “Yagona sud axborot-telekommunikatsiya tizimi”ni yaratish maqsadida IPK, FPK va Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksga tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davletova, K. 2025. Digital Transformation of the Judiciary in Uzbekistan. Demokratlashtirish va inson huquqlari, 3(107), 70–73.
2. Davletova, K. 2025. Retrospective Analysis and Legal Framework for the Introduction of ICT in the Judicial System of Uzbekistan. World Bulletin of Management and Law, 48, 24–28. <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/5378>.
3. Esanova, Z.N. 2023. Elektron sudlov: nazariy asoslar va amaliyot. Odil sudlov ilmiy-amaliy jurnali, 6, 3–8.
4. Xabibullaev, D.Yu. 2022. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual muammolari. Doktorlik dissertatsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi.
5. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 2018-yil 24-yanvar. <https://lex.uz/uz/docs/-3523891>.

